



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI АКЦИОНЕРНЫЙ
КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

BOSHQARUV QARORI

Toshkent sh.

№ 59

09.02.2024

Bankning ayrim ichki me'yoriy hujjatlarini optimallashtirish haqida

Bank boshqaruvining 2018-yil 26-iyuldagi 205-sonli qarori bilan "Reglament raboti Komissii po kachestvu AKB "Uzpromstroybank", 2019-yil 22-maydagi 44-sonli qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida VIP mijozlariga xizmat ko'rsatish standartlari bo'yicha Tartib", 2022-yil 10-maydagi 56/7-sonli qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti, 2023-yil 2-avgustdagi 176-sonli qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazish Tartibi" va "O'zsanoatqurilishbank" ATBda risklarni boshqarish ishlarini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnoma" tasdiqlangan.

Mazkur ichki me'yoriy hujjatlarda ko'plab bir-birini takrorlovchi normalar mavjudligi sababli ularni optimallashtirish hamda amaldagi qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi, shuningdek yangi normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi sababli, Bankning ichki me'yoriy hujjatlarini yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat talablariga muvofiqlashtirilish choralarini ko'rish talab etilmoqda.

Shu munosabat bilan, Komplains-nazorat departamenti tomonidan tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan kelishilgan holda "O'zsanoatqurilishbank" ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti va "O'zsanoatqurilishbank" ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazish Tartibi"ni yangi tahrirda, Risk menejment departamenti tomonidan "O'zsanoatqurilishbank" ATBda risklarni boshqarish ishlarini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnoma"ga tegishli o'zgartirishlar ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun Bank boshqaruvi muhokamasiga kiritilgan.

Bank boshqaruvi to'g'risidagi nizomning 22-bandiga asosan ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va ularga o'zgartirish kiritish Bank boshqaruvi vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

"O'zsanoatqurilishbank" ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamentining yangi tahriri 1-ilovaga;

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish Tartibi” ning yangi tahriri 2- ilovaga;

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda risklarni boshqarish ishlarini tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnoma”ga kiritilayotgan qo‘shimchalar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shu munosabat bilan, Bank boshqaruvining:

2018-yil 26-iyuldagi 205-sonli qarori va mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Reglament raboti Komissii po kachestvu AKB “Uzpromstroybank”;

2019-yil 22-maydagi 44-sonli qarori va mazkur qaror bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida VIP mijozlariga xizmat ko‘rsatish standartlari bo‘yicha Tartibi”;

2022-yil 10-maydagi 56/7-sonli qarorining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti;

2023-yil 2-avgustdagi 176-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish Tartibi” o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Komplaens-nazorat departamenti (A.Yoqubjonov) hamda Risk menejment departamenti (D.Xo‘jayev) tomonidan ushbu qaror bilan tasdiqlangan ichki me‘yoriy hujjatlarni ish faoliyatida foydalanish va unga qat’iy rioya qilish uchun Bankning tegishli tarkibiy va hududiy bo‘linmalariga yetkazilishini hamda o‘quv seminarlari o‘tkazilishi ta‘minlasin.

4. Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi (D.Mamadaliyev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan ichki me‘yoriy hujjatlarni qonunchilikda belgilangan muddatda Markaziy bankka yetkazilishi ta‘minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Risk bosh direktori X.Akbarov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi
Akbarjonov Aziz Akbarjono‘g‘li



X.G.Akbarov A.A.Ergashev Yusupov Sh.M. Yakubov
Sh.I. B.B.Uzakov U.P.Aminova

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil "9" *fevral* da
884 -son bilan
"RO'YXATGA OLINGAN"



O'zsanoatqurilishbank" ATB
Boshqaruvining
2024-yil "9" *fevral* dagi
884 -sonli qaroriga
2 -ILOVA

**"O'zsanoatqurilishbank" ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy
xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish
va ko'rib chiqish Reglamenti
(yangi tahrirda)**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Reglament "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimi (keyingi o'rinlarda – Bank)da korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va tegishli ta'sir choralarni ko'rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Reglament bankning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek xabarlarni qabul qilish, ularni ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

3. Bankning har bir xodimi korrupsiyaviy xarakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan taqdirda ular haqida aloqa kanallari orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasiga xabar berishi lozim.

4. Murojaatchining shaxsi va taqdim etgan ma'lumotlari konfidensial ma'lumotlar xisoblanadi va Bank murojaatchi bilan bog'liq ma'lumotlarni maxfiyligini va xavfsizligini himoya qiladi.

5. Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablari buzilgan va (yoki) korrupsiyaviy xarakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini tushirish, "diskriminatsiya", zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish xarakatlariga yo'l qo'yilmasligi kafolatlanadi.

6. Bank xodimi yoki boshqa har qanday shaxs (murojaatchi) korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida ma'lumotlar (veb-sayt, ma'lumot broshuralari, videokliplar, hujjatlashtirilgan ma'lumotlar) bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

7. Mazkur Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Bank tizimi – "O'zsanoatqurilishbank" ATB va uning barcha hududiy tarkibiy bo'linmalari;

ishonch telefoni – bankka korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens ishonch liniyasining telefon raqami orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish tizimi;

murojaatchi – korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida ma’lumot (xabar) berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunchilikka xilof ravishda foydalanishi, huddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

relevant xabar (murojaat) – Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari buzilishi to‘g‘risidagi xabar shu jumladan, korrupsiyaviy xarakat (xarakatsizlik)lar, manfaatlar to‘qnashuvi holatlari to‘g‘risidagi xabar;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs.

8. Bank korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfidensiallik va xavfsizlik – aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan bankning vakolatli shaxslari (Boshqaruv raisi yoki tegishli rais o‘rinbosari va Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi xodimlari) ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, Bank uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

qonuniylik – aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishlash va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta’qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs yoki bank xodimi xabarning mazmunidan qat’iy nazar ta’qib qilinmaydi;

murojaatchi bilan qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida ma’lumot murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta’sir choralarining qo‘llanilishi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, bank aybdor xodim(lar)ni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

II. KORRUPSIYAGA OID HARAKATLAR HAQIDA AXBOROT BERISH UCHUN ALOQA KANALLARI

9. Relevant xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

Bankning rasmiy veb-sayti orqali (<https://sqb.uz/uz/anticorruption/>);

Bankning ishonch telefoni orqali (0-800-120-88-88);

Bankning telegram boti orqali (@sqbantikor_bot);

“Facebook” ijtimoiy tarmoq orqali (<https://www.facebook.com/sqbuz/>);

Bank xodimlari uchun “Intranet” dasturi orqali (<https://sqb.uz/xabar/>).

Shuningdek, relevant xabarlar:

Og‘zasi (shaxsan) yoki yozma murojaat orqali;

Huquqni muhofaza qilish organlari orqali;

“Call-center”, elektron pochta orqali qabul qilinadi. Bunda, relevant xabarni Komplayens-nazorat departamenti Korruptsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasiga zudlik bilan yetkazishda ushbu xabarni qabul qilgan tarkibiy bo‘linma rahbari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

10. Bank aloqa kanallari to‘g‘risidagi ma’lumotni rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek xodimlarga davriy ravishda yuboradi, hududiy tarkibiy bo‘linmalar binolarida joylashtiriladigan “Pauchok”, “Teybl-tent” va “Poster”larda aks ettiradi.

III. ALOQA KANALLARI ORQALI KELIB TUSHAYOTGAN RELEVANT XABARLARNI QABUL QILISH

11. Aloqa kanallari dasturiy ta’minotlari (maxsus kompyuter, eshitish vositasi “naushnik”, telefon apparati va boshqalar) Komplayens-nazorat departamenti Korruptsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasiga ajratilgan alohida xonada joylashtirilishi hamda ulardan faqatgina mazkur boshqarma mas’ul xodimi foydalanishi mumkin.

Aloqa kanallari dasturiy ta’minotlari joylashgan xonaga maxsus kompyuter, eshitish vositasi, telefon apparatlarni yangilash, ta’mirlash) maqsadidagina Axborot texnologiyalari departamenti mas’ul xodimlari kirishi mumkin.

12. Komplayens-nazorat departamenti Korruptsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi bankga kelib tushgan relevant xabarlarni ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi.

Relevant xabar bo‘lmagan boshqa xabar (ma’lumot, murojaat, ariza, shikoyat, taklif)lar O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi banklarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy nizom va bankning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyutsiya uchun Boshqaruv raisi yoki tegishli rais o‘rinbosariga kiritiladi.

Ijro-nazorati departamenti bankka kelib tushgan relevant bo'lmagan xabar (ma'lumot, murojaat, ariza, shikoyat, taklif) larni ko'rib chiqilishini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

13. Bank xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari buzilishi to'g'risidagi xabarlarni aloqa kanallari yoki boshqa tarkibiy bo'linmalar orqali qabul qilish uchun Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi tomonidan mas'ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, relevant xabar kelib tushganda mas'ul xodim tomonidan xabar ro'yxatga olinadi va ma'lumot Boshqaruv raisi yoki tegishli rais o'rinbosariga kiritiladi.

Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi mas'ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar qabul qiladi va ro'yxatga oladi. Agar relevant xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida ro'yxatga olinadi.

14. Agar murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio-videoyozuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochta)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotni konfidentsialligini bildiradi. Mazkur ma'lumotlar taaluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

15. Relevant xabar kelib tushgandan keyin **1 soat** ichida mazkur Reglamentning ilovasiga muvofiq shaklda "Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestri"da (keyingi o'rinlarda – Reyestr) ro'yxatga olinadi va ushbu Reglamentning IV- bo'limiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

16. Bank murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risida anonim (relevant) xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim relevant xabar bankning "Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestri"da ro'yxatga olinadi va o'rganib chiqiladi.

17. Bank xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

18. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taaluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatda saqlanishi lozim.

19. Relevant xabar bankning tarkibiy, shu jumladan hududiy tarkibiy bo'linmalariga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan tarkibiy, hududiy tarkibiy bo'linmalar rahbarlari tomonidan zudlik bilan Bosh bank yoki hududiy tarkibiy bo'linmalardagi Komplayens-nazorat departamenti xodimiga yetkazilishi lozim.

20. Bankning hududiy tarkibiy bo'linmalardagi Komplayens-nazorat departamenti xodimlari o'zlarining "Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestri"ni yuritishi lozim.

IV. KORRUPSIYAVIY HARAKATLAR HAQIDAGI XABARLARNI KO'RIB CHIQISH

21. Kelib tushgan barcha relevant xabarlar Komplayens-nazorat departamentining mas'ul xodimlari tomonidan yoki boshqa bo'linmalar bilan birgalikda Boshqaruv raisi yoki tegishli rais o'rinbosarining topshirig'iga asosan boshqa bo'linmalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

22. Relevant xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, o'z xatti-xarakatlari ustidan relevant xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

23. Relevant xabar kelib tushganda Komplayens-nazorat departamenti xodimi (xodimlari) tomonidan ushbu xabar reyestrغا kiritiladi va dastlabki o'rganishlar o'tkaziladi. Dastlabki o'rganishlar relevant xabar reyestrغا kiritilgan kundan boshlab **3 ish kungacha** bo'lgan muddatda "O'zsanoatqurilishbank" ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazish tartibi"da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar kelib tushgan xabar korrupsiya yoki manfaatlar to'qnashuviga oid bo'lmasa, mazkur xabar **1 ish kuni** mobaynida bankning tegishli tarkibiy bo'linmasiga xizmat yozishmasiga asosan yuboriladi.

Agar xabarda ko'rsatilgan holatlarda korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa "O'zsanoatqurilishbank" ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazish tartibi"da belgilangan tartibda xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

24. Mazkur Reglamentning 23-bandida nazarda tutilgan dastlabki o'rganish natijalaridan qat'i nazar bu haqdagi ma'lumot Reyestrغا kiritiladi.

25. Relevant xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish bankga kelib tushgan kundan e'tiboran 15 (o'n besh) ish kuni ichida tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda ularni ko'rib chiqish muddatlari, Boshqaruv raisi yoki tegishli rais o'rinbosari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan 15 (o'n besh) ish kuniga uzaytirilishi mumkin bu haqida murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

26. Murojaatga javob Komplayens-nazorat departamenti tomonidan tayyorlanadi va bank Boshqaruvi Raisi (o'rinbosarlari) imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

Relevant xabarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari to'g'risidagi ma'lumotdan iborat bo'lgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi (anonim murojaatlar bundan mustasno).

27. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal (sahifalar va telegram-bot) orqali kelib tushgan relevant xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

V. HISOBDORLIK

28. Reyestrda faqatgina bank Boshqaruvi Raisi yoki korrupsiyaga qarshi kurashish yoʻnalishini nazorat qiluvchi oʻrinbosari va Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi xodimlari foydalanishi mumkin.

29. Reyestr maʼlumotlari asosida Komplayens-nazorat departamenti tomonidan davriy tarzda “Oʻzsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati toʻgʻrisidagi hisobotni shakllantirish tartibi”ga asosan hisobot taqdim etiladi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR


30. Ushbu Reglament qabul qilinishi munosabati bilan Bank Boshqaruvining 2022-yil 10-maydagi 56/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzsanoatqurilishbank” ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar toʻgʻrisida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va koʻrib chiqish Reglamenti oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblanadi.

31. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi oʻzgarganda qayta koʻrib chiqilishi lozim.

32. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab boʻladi.

Kiritildi:


Komplayens-nazorat
departamenti direktori



A.Yokubjonov

Kelishildi:

Risk menejment departamenti direktori v.v.b.



D.Xujayev

Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish
departamenti direktori



S.Sergienko

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari



D.Mamadaliyev

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBga aloqa kanallari
orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib
tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish”
Reglamenti”ga Ilova**

Korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarini qabul qilish
REESTRI

[illegible]